https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Rahmatullayeva Nilufar

Student at Kokand State University

Teacher: **Satimova Hayotxon Karimovna**

Kokand State University

+998975551844

hayotkhonsatimova@gmail.com

ROMEO VA JULIETA DRAMASIDA AYOL OBRAZINI IFODALOVCHI STILISTIK BIRLIKLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Uilyam Shekspirning " Romeo va Julieta" tragediyasida ayol obrazini ifodalovchi stilistik birliklar tadqiq etiladi . Julietta , Lady Capulet , va Enaganing nutqida uchraydigan semantic va stilistik birliklar tahlil qilinib , ularning ayol xarakterini yaratishdagi lingvistik o'rni ochib beriladi . Tadqiqot natijalari asarda ayol obrazi romantik, nozik , pokiza , sadoqatli,va fojiali harakter sifatida ifodalanganini ko'rsatadi .

Kalit so'zlar: Stilistik birliklar , ayol obrazi , semantika , stilistika , metafora alluziya , epitet , o'xshatish , jonlantirish , bo'rttirish ,Shekspir nutqi , obraz talqini , ayollik konsepti .

Abstract

This article examines the stylistic units that characterize the female image in William Shakespeare' s tragedy " Romeo and Juliet" . The semantic and stylistic expression used in the speech Juliet , Lady Capulet , and the Nurse are anylzed , revealing their linguistic role in constructing the female character. The findings

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

indicate that the women in the play are portrayed as romantic, gentle , pure, devoted , and tragic figures .

Key words : stylistic units , female images, semantic and stylistics , metaphor , allusion , epithet , simile , personification , hyperbole , Shakespeare aromatic speech , character interpretation , feminity concept .

KIRISH

Uilyam Shekspir yaratgan “Romeo va Julieta” tragediyasi jahon adabiyotining eng mashhur dramatik namunalaridan biri bo’lib , unda insoniyatga xos eng yuksak tuyg’ular , taqdir sinovlari, sadoqat va muhabbat , ijtimoiy qarama qarshiliklar o’z aksini topgan . Asardagi ayol personajlar, xususan Julieta obrazi badiiy tasvirning asosiy markazida turadi . Ularning nutqida qo’llangan leksik- stilistik vositalar personajning ma’naviy dunyosi psixologik xolati , jamiyatdagi o’rni va ayollik konsepti haqida tasavvur beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, adabiyotshunoslikda ushbu tragediya ko’proq syujet, konflikt , psixologik talqin yoki sahna ijrosi jihatidan organilgan bolsada, ayol obrazini yaratishda qollangan leksik birliklar alohida alohida mustaqil ilmiy tahlil.obyektiga yetarlicha aylantirilmagan . Shunday ekan, ushbu maqola Shekspir tomonidan ayol obrazini tasvirlashda qollangan leksik vositalarning semantik va stilistik xususiyatlarini aniqlashni maqsad qila oladi .

TADQIQOT METODI

Ushbu tadqiqot Shekspirning “Romeo va Juliet” tragediyasi hamda Maxsud Shayxzoda tomonidan yaratilgan o’zbekcha she’riy tarjima asosida ayol obrazini ifodalovchi stilistik birliklarning qiyosiy tahliliga bag’ishlandi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-stilistiktahlil

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Inglizcha asliyatdagi metafora, epitet, o'xshatish, antonomasiya, oksimoron, ironic birliklar o'zbekcha tarjima bilan qiyoslanib, semantik, konnotativ va funksional o'zgarishlar aniqlandi.

2. Kontekstual-semantiktahlil

Har bir stilistik birlikning kontekstda qanday mazmun yuklayotgani, qanday estetik yoki gender ma'noga egaekani o'rganildi. Ayol obrazi qanday semantic maydonlarda (go'zallik, zaiflik, poklik, sho'xlik, jodugarlik, idealizatsiya) tasvirlanishi aniqlashga qaratildi.

3. Tarjimaning milliy-adabiy an'ana bilan uyg'unligini tahlil qilish

O'zbek tarjimasida ayol obrazining milliy estetik me'yorlar (jonon, nozanin, nur, olmos, yulduz) orqali qayta talqin qilinishi intertekstual nuqtai nazardan o'rganildi.

4. Gender lingvistikasiga tayanilgan tahlil

Ayol obraziga nisbatan ishlatilgan stilistikvositalar patriarxal qarashlar, idealizatsiya, romantizatsiya yoki yumshatish mexanizmlari asosida baholandi.

5. Deskriptiv va interpretative metod

Tarjimondagi har bir stilistik vosita nafaqat tasniflandi, balki uning estetik vazifasi, emosional yuklamasi va gender konnotatsiyasi ham sharhlab berildi.

BADIIY ASAR TAHLILI

(Inglizcha original va Maxsud Shayxzoda tarjimasi asosida murakkab tahlil)

'Tis true, and therefore women, being the ***weaker vessels****, are ever thrust to the wall. (metafora)*

Gaping to'g'ri, shu sababli ayollarni ***mo'rt idish*** *deb doimo devordagi tokchalarga tiqib qo'yadilarda.*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bu jumlada ayollar “weaker vessels” (zaif idishlar) ga qiyoslanadi. Bu metafora orqali ayollarning jamiyatdagi himoyasiz, bosim ostidagi holati tasvirlanadi. Shayxzoda tarjimasida “mo’rt idish” metaforasi original ma’noni kuchaytiradi: “mo’rt” so’zi o’zbek madaniyatida sinuvchanlik, himoyaga muhtojlik, ehtiyot talab etish mazmunini chuqurroq beradi. Bu esa ayolning zaif emas, balki qo’riqlanishi lozim bo’lgan qimmatbaho mavjudot sifatidagi milliy qarashni aks ettiradi.

Earth-treading stars *that make dark heaven light,*

*Such comfort as do lusty young men feel. (*Metaphor)

Biz faqirning xonasiga tashrif buyuring,

Jononlarni ko’rsataman — yulduzdan porloq.

Inglizcha matndagi ibora Romeo uchun ayol — go’zallik nishoni, ya’ni taqdir mo’ljallagan yor sifatida tasvirlanadi. Bu metaforaayolni “maqsad”, “belgi” sifatidako’rsatadi. Shayxzoda esa badiiy obrazni sezilarli darajada romantiklashtirib, uni “jonon”, “mergan” metaforalari bilan kuchaytiradi. Bu tarjima ayolni nafaqat go’zallik nishoni, balki o’q yurgan joyni yorita oladigan qudratli muhabbat obyekti sifatida ko’rsatadi. Milliy poetikadan kelib chiqqan holda ayol ideal darajada ulug’lanadi.

I aimed so near when I supposed you loved.

A right ***fair mark,*** *fair coz, is soonest hit. (*Metaphor)

Ishq deganda men xotinni oldim hadafga,

Bo’lmasa **sen zo’r mergansan: sevganing — jonon.**

Sevgi nishon (mark), oshiq esa mergan sifatida tasvirlanadi. Muhabbat ov yoki nishonga olish jarayoni bilan qiyoslanadi.:

She’ll not be hit with ***Cupid’s arrow****.*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

*She hath **Dian's wit,***

And in strong proof of chastity well armed,

*From Love's weak childish bow she lives uncharmed. (*Allusion)

Yanglishipsan: unga qarab sevgi ilohi

Behudaga mo'ljal olib uzgandi o'qni.

*U **Diana — oy tangrisi** g'oyat zehnli,*

Beg'ubor qiz sovutida no'qlar o'tolmas.

Ushbu misralarda jpnlantirish, metafora va alluziya orqali sevgi qudrati ko'rsatilgan, shuningdek, o'zbekcha tarjimada ham ushbu stillistik vositalar saqlanib qolingan. Cupid — sevgi ilohi, Diana — poklik timsoli. Julietaning aqli va iffatli ekanligi mifologik obrazlar orqali ochib beriladi. Sevgi "bolalarcha kamon" sifatida jonlantiriladi. Shayxzoda tarjimasida "oy tangrisi" determinatori qo'shilib, obraz o'quvchi uchun izohli, tushunarli va kuchliroq semantik yuklanadi.

*County Anselm and his **beauteous sister,***

*The **lady widow** of Vitruvio,*

*SigniorPlacentio and his **lovely nieces**,*

Mercutio and his brother Valentine.

*Graf Anselm va uning **oy jamol singlisi**,*

***Alamzada beva** Vitruzio xonim,*

*Plachensio afandi va uning **nozanin jiyanlari.***

Originalda ayolning ijtimoiy maqomi — bevaligi muhim semantic bo'yoqga ega. Tarjimada "alamzada" so'zining qo'shilishi tragedik ohangni kuchaytiradi: ayolning nafaqat bevaligi, balki ijtimoiy-ruhiy jarohati ham ta'kidlanadi. Bu

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o’zbek poetikasiga xos empatiya va rahm-shafqatni aks ettiradi. “Beauteous”, “lovely” so’zlari epitet bo’lib, obrazlarning chiroyini bo’rttirib ko’rsatadi. Inglizchadagi “lovely” umumiy maqtov bo’lsa, o’zbekcha “nozanin” so’zi noziklik, latofat, tarbiya va odobni o’z ichiga olgan ko’p qatlamli obraz yaratadi. Tarjimon ayol obraziga milliy axloqiy-estetik sifatlarni qo’shgan.

Compare her face with some that I shall show,

And I will make thee think thy ***swan a crow****.*

Taqqoslab chiq bu qizlarni sevganing ila,

Zog’dan qora *ko’ringusi sening* ***oqqushing****!*

Ayol go’zalligi oqqush orqali ideallashtirilishi, raqib ayol esa qarg’aga qiyoslanishi orqali kuchli contrast yaratiladi. O’zbekchada ham shu semantic qarama-qarshilik saqlangan, ammo “go’zal — oqqush”, “xunuk — qarg’a” milliy ramzlar bilan uyg’unlashgan. Bu metafora gender qarashlarni ham ko’rsatadi: ayol bahosi ko’pincha tashqi go’zallik mezoni orqali belgilanadi.

But in that ***crystal scales*** *let there be weighed*

Your lady’s love against some other maid.

Taqqoslab deb ko’zdan yasang ***go’yo tarozi****,*

Bir kafida boshqa bir qiz, birida o’zi.

Sevgi “billur tarozi”da o’lchanayotgan narsa sifatidatasvirlanadi. Bu taqqoslash muhabbatni baholash g’oyasini beradi.

When it did taste the wormwood on the nipple

Of my dug and felt it bitter, ***pretty fool.***

Achchiq ko’kat so’rib olgach bolaginamiz,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

*Og'zi kuyib ketdi — **tentak qizchaning.***

"Pretty fool" — "yoqim toytentak" (oksimoron). Shekspir ayolning sodda, beozor, ammo jozibadorligini oksimoron orqali ifodalaydi. Shayxzoda "yoqimtoy tentak" deb, original mazmunni yanada issiq, samimiy tonda beradi. Oksimoron saqlangan, lekin emotsional bo'yoq ortgan. Bu xalqqa xos mehribon istehzo bilan ayolning soda jozibasini tasvirlaydi.

Wilt thou not, Jule? And by my holidame,

*The **pretty wretch** left crying and said "Ay".*

Tez fursatda shunday bo'lar, shundaymi bolam?

***Tushmagur qiz** dami uchib birdan dedi: "Ha".*

Ingliz tilidagi "wretch" keskinroq salbiy ma'noga ega. O'zbekchada "tushmagur" yumshoqroq istehzo bo'lib, ayolga nisbatan oshkora salbiy hukm berilishining oldini oladi. Tarjima madaniyat bilan muvofiqlashtirilgan. Bu ayolga nisbatan qattiq baho berishni yumshatish jarayonidir.

*That plats the **manes of horses** in the night,*

*And bakes the elflocks in foul **sluttish hair,***

Which once untangled much misfortune bodes.

Qir kokillar to'qib turar otlar yolidan,

Kokillarni yechsang — balo bo'lg'usi.

Bu yerda sehrli kuchlar ot yoli va qiz sochlari bilan bog'lanadi. Soch — taqdir ramzi sifatida ishlatiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Shekspirning "Romeo va Julieta" asarida stilistik birliklar asarning badiiy-estetik qiymatini oshirishda, qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda markaziy rol o'ynaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

NATIJALAR

Tahlil shuni ko’rsatdiki, Maxsud Shayxzoda tarjimasida ayol obrazi asl nusxaga nisbatan yanada poetik, estetik va romantic darajada yuksaltirilgan. Shekspir ba’zan esa istehzo obyektiga aylanishi odatiy bo’lgan bo’lsa, Shayxzoda bu tasvirni o’zbek adabiy an’analariga moslab milliylashtiradi va estetik jihatdan boyitadi. Tahlil natijasida inglizcha original matn va o’zbekcha tarjima o’rtasida quyidagi asosiy qonuniyatlar aniqlandi:

1. Ayol obrazini tasvirlovchi ko’plab metaforalar o’zbek tarjimasida kuchaytirilgan

Masalan: The weaker vessels → mo’rtidish

Earth-treading star → yulduzdanporloqjonon

Tarjimon obrazga milliy-estetik bo’yoqlar qo’shgan, ayolni yanada nozik, ideal va qadrlangan shaklda taqdim etgan.

2. Ba’zi salbiy konnotatsiyali birliklar o’zbekcha tarjimada yumshatilgan:

Masalan: Pretty wretch → tushmagur qiz; Wantons → sho’xqizlar; Sluttish hair → balo bo’lgusi kokillar

Bu madaniy- etnik kontekstga moslashtirilgan stilistik yumshatish holatlarini ko’rsatadi.

3. Mifologik alluziyalar kengaytirilgan va izohlovchi elementlar bilan boyitilgan

Dian’s wit → Diana oy tangrisi go’yat zehnli

Bu tarjimonda ayolning aql-zakovati, pokizaligi yanada kuchliroq ifodalangan.

4. Romantik va poetic epitetlar o’zbek matnida emotsional kuchga ega

true beauty → go’zallikni bilmas ekanman

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tarjimon epitetni kengaytirib, ayol go'zalligini kashf qilish jarayonini hissiy-estetik lahza sifatida taqdim etgan.

5. O'zbek tarjimasi ayol obrazini sharqona estetika orqali boyitgan

Ko'plab o'xshatishlar (olmos yanglig' barq urar, yulduzdan porloq) ayolni ideal nur timsoliga aylantiradi.

6. Kontrastga asoslangan metaforalar (oqqush – qarg'a) milliy madaniyatga mos uyg'un tasvir topsa ham, semantic jihatdan to'liq saqlangan. Bu ayolning jozibasi va raqobat motivini kuchli ifodalagan.

XULOSA

Shekspir matnidagi ayol obrazini ifodalovchi stilistik birliklarning Maxsud Shayxzoda tarjimasida qayta talqin qilinishi quyidagi tamoyillarni namoyon qiladi. Stilistik vositalar semantik jihatdan saqlangan, lekin emotsional jihatdan kuchaytirilgan. Tarjima original mazmunni yo'qotmagan holda, uni o'zbek she'riy timsollari bilan boyitadi. Ayol obrazi tarjimada ideal, nurli, pokiza va latofatli mavjudot sifatida ko'proq yuksalgan. Bu sharqona estetik me'yorlar va mentalitet bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekcha tarjimalarda badiiy ma'no va stilistik birliklar saqlangan. Ba'zi joylarda milliy ruh bilan boyitilgan, masalan Julietaning go'zalligi "jamolidan mash'allar ham bo'ldilar xira", "tun qo'ynida olmos yanglig' barq urar husni" kabi tasvirlar bilan. Romantik va fojeaviy ohang stilistik birliklar orqali kuchaytiriladi. Julietaning husni va Romeo his-tuyg'ulari birgalikda tasvirlanganida, o'quvchi qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada chuqur his qiladi.

Umuman olganda, "Romeo va Julieta" asaridagi stilistik birliklar Shekspir adabiyotining estetik va lingvopoetik boyligini ko'rsatadi va ularni o'rganish lingvistik va badiiy jihatdan muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1. Shakespeare, W. Romeo and Juliet. Oxford University Press. 2004.

2.Shakespeare, W. Romeo va Juletta (M. Shayxzoda, tarj.). G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. 2008

3. Satimova, H. K. (2023). THE COMPARISON OF THE USAGE OF GENDER CATEGORY IN PROVERBS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 705-709.